

# NORDIC LIFE | 2025

10<sup>SON</sup>

Yanvar • Fevral

**Nozima**

Koreya davlat granti sohibasi

1

Muloqotlar

Choraklik hisobotlar

2

Muzokaralar

Jarayonlar tahlili

3

Munosabatlar

Muvaffaqiyat omili



# **NORDIC LIFE** **NORDIK HAYOTI**

# NORDIK HAYOTI / NORDIC LIFE

Xalqaro Nordik universiteti rektori  
Sherzod Mustafakulov tahriri ostida

Nashrga tayyorlaganlar: M.Isaqova, A.Erkinov

Xalqaro Nordik universitetining yana bir chorak – 2025-yilning **yanvar, fevral** oylaridagi sermazmun hayoti **“Nordic life”ning 10-faslida** o‘z aksini topdi.

Ushbu broshyuramizda Nordik universitetida yangi yilni yangi yutuqlar bilan qarshi olgan jamoa va talabalar hayoti, muhim tashriflar va global hamkorliklar, ilmiy muvaffaqiyatlar hamda kundalik rang-barang tadbirlar, anjumanlar jamlangan.



**INTILGANGA TOLE YOR!**  
**WHERE THERE'S A WILL, THERE'S A WAY!**



# KIRISH

Nordik universiteti uchun yangi 2025-yil xushxabarlar bilan boshlandi. Yangi yilda erishilgan yangi yutuqlar, xususan yangi o'quv adabiyotlari nashr etilishi, Nordik nashriyoti faoliyat turlari kengayishi, talabalarimizning Erasmus grantlari va nufuzli stipendiyalarni qo'lga kiritishlari, bakalavriat va magistrantlarimizning Koreya va Amerikada yetakchi oliygohlarda o'qish uchun yo'l olishlari Nordik oilasi mehnatlarining o'ziga xos natijalari bo'ldi.

Yanvar, fevral oylarida Nordik universitetiga muhim tashriflar bo'lib o'tdi. Yangi xalqaro global hamkorliklarga poydevorlar qo'yildi. Ayniqsa, universitetda xalqaro ko'rgazma ochilishi keng jamoatchilik e'tiborini yana bir bor Nordikka qaratdi.

Gazetalar va televideniye orqali muhim targ'ibotlarda davomiylikka erishildi. Ilmiy faollik va laboratoriyalar faoliyatida yangi bosqichga ko'tarilish kuzatildi. Talabalarimiz ilmiy rahbarlari bilan ishlab chiqqan biznes g'oyalari bilan qator nufuzli tanlovlarda g'olib bo'ldilar. Kelajak uchun muhim startaplar yaratib, patent olishga erishdilar. Nordik yosh olimlari yil tadqiqotchilari safidan joy oldilar.

Nordik universiteti II O'zbekiston-Finlandiya biznes forumiga mezbonlik qilib, ikki mamlakat ishbilarmon doiralari uchun hamkorlikning yangi bosqichiga yo'l ochib berildi.

Shuningdek, 2025-2027-yillarda universitetni kompleks rivojlantirishga mo'ljallangan harakatlar rejasi ishlab chiqilib, tasdiqlandi. Nordik universiteti respublika oliy ta'lim tizimida pedagog kadrlar tayyorlash ishlarini muvofiqlashtirish va yanada rivojlantirish bo'yicha shtab vazifasini o'tashga kirishdi.

Yana bir muhim qadam ta'lim eksporti amalga oshirilib, qozog'istonlik bir guruh pedagoglar Nordikda malaka oshirdilar va pedagogik rivojlanish tomon qadam qo'ydilar.

Nordik delegatsiyasi Malayziya ta'lim safari davomida ham salmoqli natijalarga erishdi.

Buxoroda XNU hamkorligida "Prokuror sovrini" olimpiadasi keng qamrovda tashkil qilinib, respublika bo'yicha ommalashtirishga tavsiya etilgani ezgu harakatlardan biri bo'ldi.

Ushbu broshyurada shu kabi qator yangi qadamlar va salmoqli natijalar bilan kengroq tanishishingiz mumkin.

## **Sherzod Mustafakulov**

Xalqaro Nordik universiteti rektori,  
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## **MUNDARIJA:**

• Kirish -----	5
• Yangi yilda yangi o'quv adabiyotlari nashr etildi -----	10
• Erasmus grantlari qo'lga kiritildi -----	11
• Xalqaro Nordik universiteti nashriyotining faoliyat turlari kengaydi! -----	11
• Rektor Amerikaga yo'l olayotgan magistrantlar bilan suhbatlashdi -----	12
• Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining madaniyat hamda san'atni rivojlantirish bo'yicha maslahatchisi Jenisbek Piyazov - Nordik universitetida -----	12
• Nozima nufuzli stipendiya sohibi! -----	13
• Yoshlarga imkoniyatlar uchun yangi hamkorlik -----	13
• Nordikda o'tmishga sayohat! -----	14
• Raqamli transformatsiya: shaffof, aniq va maqsadli -----	14
• Nordikda bayram! -----	15
• XNU kengashida navbatdagi himoyalar muvaffaqiyatli yoqlandi -----	15
• <i>24 nafar professor-o'qituvchiga Finlandiya ta'lim tajribalarini o'rganish bo'yicha tashkil etilgan malaka oshirish kursi sertifikatlari topshirildi</i> -----	16
• Yana bir talabamiz Koreyada ta'lim oladi! -----	17
• Nordik vakillari – Qo'qon universitetida -----	18
• Nordikda bolajonlar uchun yangi loyiha! -----	18
• Trenddagi zamonaviy kasblar o'rganilmoqda -----	19
• II O'zbekiston - Finlandiya biznes forumi: istiqbolli yo'nalishlarda hamkorlikning yangi bosqichi -----	20
• Talaba-yoshlarni ijtimoiy, iqtisodiy yo'qotishlardan asrash - e'tiborda -----	22

---

• Opera yulduzi - Nordik sahnasida! -----	23
• Doktorant va ilmiy izlanuvchilar uchun ilmiy-uslubiy seminar o‘tkazildi -----	24
• Nordik rektori Sherzod Mustafakulov - "Eng yaxshi maqolalar" muallifi! -----	25
• Universitetni kompleks rivojlantirishning harakatlar rejasi tasdiqlandi -----	26
• Tursun Ali kitobi taqdimotiga bag‘ishlangan adabiy anjuman o‘tkazildi -----	27
• Lourens texnologiya universiteti Prezidenti o‘qish uchun borgan talabalarimiz bilan uchrashdi -----	28
• Nordik universiteti va O'zDJTU Akademik litseyi o‘rtasida yangi hamkorlik yo‘nalishlari belgilandi -----	28
• Xasan Sabirov - yil tadqiqotchisi! -----	29
• Pedagogik kadrlar tayyorlashni muvofiqlashtirish bo‘yicha kichik guruh majlisi o‘tkazildi -----	29
• Ta'lim eksporti: Qozog‘iston delegatsiyasi Nordikda malaka oshirmoqda! -----	31
• Xalqaro Nordik universiteti delegatsiyasi Malayziyada ta'lim safarida bo‘lib turibdi -----	32
• Nordik bilan pedagogik rivojlanish tomon qadam qo‘yildi -----	33
• Malayziyadagi nufuzli universitetlar - yangi hamkorlarimiz! -----	33
• Finlandiyada ta'lim innovatsiyalari: O‘zbekiston pedagoglari malaka oshirdi -----	34
• Shoir va adib Oybek haqida suhbat qurildi -----	35
• Respublikamizda pedagog kadrlar tayyorlash tizimi yanada rivojlantiriladi -----	35



• Bir asrning ikki dahosi: Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur	-----	37
• Navoiyshunos olim sabogʻi: Navoiyni koʻnglimiz mulkiga aylantiraylik...	-----	37
• Nordik universitetida xalqaro hamkorlik sari yangi qadamlar	-----	39
• "Kitoblashamiz!": Nordikda kitobxonlar safi kengaydi	----	40
• Buyuk Britaniyalik Charles Normandan qiziqarli master-klass!	-----	40
• Zakovat: Talabalar uchun aql charxi va doʻstlik maydoni !	--	41
• Nordikning iqtidorli talabalari jamiyat rivoji uchun ilk qadamlarini qoʻydilar!	-----	41
• Bookshare: kitoblar orqali bilimlar almashilmoqda!	-----	42
• Talabalarimiz kelajakni oʻzgartiruvchi startup yaratdilar	---	42
• Buxoroda "Prokuror sovrini" olimpiadasining 2-final bosqichi shaffof oʻtkazildi!	-----	43
• Olimpiadaning Toshkent viloyati bosqichiga Xalqaro Nordik universiteti mezbonlik qildi	-----	43
• Sergey Stanovkindan master-klass: mamlakat brendini yaratishda OAVning oʻrni	-----	44
• Oʻzbekiston-Pokiston: Janubiy va Markaziy Osiyoni birlashtiradigan ishonchli hamkorlik	-----	46
• Buxoroda "Prokuror sovrini" olimpiadasi gʻoliblari aniqlandi!	-----	46
• Nordik izlanuvchilari malakaviy imtihondan oʻtdilar	-----	47
• Mustahkam hamkorlik sari muhim qadam	-----	47
• XNU Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutida 2025-yil 2-chorak uchun kirish imtihoni boʻlib oʻtdi	-----	48
• Doktorant va mustaqil izlanuvchilar uchun ilmiy-amaliy seminar oʻtkazildi	-----	48

## Yangi yilda yangi o'quv adabiyotlari nashr etildi



Nordik universitetida tayyorlangan **"Innovatsion iqtisodiyot"** darsligi fan bo'yicha bilimlarni mustahkamlaydi (muallif - A.Xashimov).

Undagi mavzularni o'zlashtirish asosida innovatsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyati, ularning mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati to'g'risida yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish mumkin.



Shuningdek, ekonometrik va statistik tahlillarni amalga oshirmoqchi bo'lganlar uchun foydali o'quv qo'llanma - **"Ekonometrika asoslari"** kitobi nashr etildi (mualliflar Sh.Mustafakulov, X.Sabirov). Ushbu qo'llanmada ekonometrik modellashtirish asoslari, axborot ta'minoti va tahlil ilmini o'rganishingiz mumkin.

Kitob ekonometrika bilan bog'liq amaliy muammolarni hal qilish va ma'lumotlar to'plamlari bilan ishonchli ishlashga imkon beruvchi amaliy masala-misolalar bilan boyitilgan.



**"Amaliy ekonometrika"** o'quv qo'llanmasida esa ekonometrik modellashtirish jarayoni va unda Stata dasturining imkoniyatlarini keng o'rganish mumkin (mualliflar - N. Muradullayev, X.Sabirov).

Kitob ekonometrika bilan bog'liq amaliy muammolarni hal qilish va ma'lumotlar to'plamlari bilan ishonchli ishlashga

## Erasmus grantlari qo'lga kiritildi



*Erasmus+ KA171 ICM xalqaro dasturi grantlari yutib olindi.*

Grant asosida Nordik universiteti 3 nafar talabasining WSEI (Polsha) universitetida o'qish xarajatlari qoplab beriladi. Grant sohiblari faqat bilim olish va fan bilan mashg'ul bo'lishlari uchun stipendiya ham ajratiladi.

Nordikning 2 nafar professor-o'qituvchisi ham joriy yilda Polshaning Lublin shahriga yo'l oladilar. Ular nufuzli oliygohda dars berish bilan birga treninglarda ishtirok etib, malaka toshiradilar.

Mobillik davomida barcha xarajatlar dastur tomonidan qoplanishi ko'zda tutilmoqda.

## Xalqaro Nordik universiteti nashriyotining faoliyat turlari kengaydi!



*AOKAning № 505800 raqamli Tasdiqnomasi asosida nashriyotimizda qator yangi faoliyatlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldik!*

- Ijtimoiy-siyosiy nashrlar
- O'quv adabiyotlari
- Adabiy-badiiy nashrlar
- Ilmiy nashrlar
- Ilmiy-ommabop nashrlar
- Axborot-reklama nashrlari
- Bolalar va o'smirlar nashrlari
- Ishlab chiqarish nashrlari
- Ensiklopedik nashrlar
- Ma'naviy-ma'rifiy nashrlar

Endilikda nashriyot-kompleksimizda nafaqat universitet professor-o'qituvchilari, balki chet mualliflarning ham materiallarini tahrir qilish, nashrga tayyorlash va nashr etish xizmatlari mavjud.

## Rektor Amerikaga yo'l olayotgan magistrantlar bilan suhbatlashdi

Nordik universiteti Ma'lumotlar ilmi (data science) magistratura mutaxassisligining 3 nafar talabasiga o'qishning 2-semestrini Amerikada davom ettirish imkoniyati yaratildi.

Nordik universiteti Ma'lumotlar ilmi (data science) magistratura mutaxassisligining 3 nafar talabasiga o'qishning 2-semestrini Amerikada davom ettirish imkoniyati yaratildi. Amerikaning Lawrence Texnological

universityda ta'lim uchun yo'l oldidan rektor Sherzod Mustafakulov talabalar va ularning ota-onalari bilan suhbatlashdi. Amerikada yashash va ta'lim olish borasida ularga zarur tavsiyalar berdi.

Talabalarimizni Amerikada bir asrga yaqin tajribaga ega, 2025-yilda eng yaxshi universitetlar mintaqaviy reytingida 54-o'rinni egallagan nufuzli oliygoxda zamonaviy dasturlar bo'yicha o'qish kutmoqda!



## Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining madaniyat hamda san'atni rivojlantirish bo'yicha maslahatchisi Jenisbek Piyazov - Nordik universitetida



Nordik universitetida mashhur o'zbek va qoraqalpoq opera xonandasi, O'zbekiston, Qoraqalpog'iston, Boshqirdiston va Tatariston Xalq artisti Jenisbek Piyazov bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Universitet rahbariyati va Jenisbek Piyazov o'rtasida kechgan suhbatda Nordik universitetining Musiqa ta'limi

yo'nalishi va mutaxassisligida sifatli ta'lim masalalarida so'z bordi.

Jenisbek Piyazov talaba-yoshlarning san'at, madaniyat, musiqa sohasidagi iqtidor va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishda maslahatdosh bo'lishga tayyorligini ma'lum qildi.

El suygan san'atkor talabalarga musiqa sirlarini o'rgatishda zarur tavsiyalari bilan bo'lishdi. Musiqa ta'limi kafedrasini jamoasi bilan ham samimiy suhbatda bo'ldi.

## Nozima nufuzli stipendiya sohibi!



*Nordikda xushxabarlar seriyasi davom etmoqda!*

Xorijiy til yo'nalishi talabasi Nozima Shavkatova Koreya hukumatining eng nufuzli stipendiyalaridan biri (GKS)ni qo'lga kiritdi.

Koreyaning Xalqaro ta'lim bo'yicha milliy instituti stipendiya dasturi talabamizga 2-semestrni universitetimiz

hamkori - Daegu universitetida bepul o'qish imkoniyatini taqdim etadi. Uning Koreyada yashash, ta'lim olish va koreys tilini o'rganishi bilan bog'liq barcha xarajatlar dastur tomonidan qoplanadi.

Nozima dunyo bo'ylab eng ilg'or talabalardan biri sifatida tanlandi. Uni oldinda Janubiy Koreya davlati bilan yaqindan tanishish va nufuzli universitetda zamonaviy dasturda o'qish kutmoqda!

## Yoshlarga imkoniyatlar uchun yangi hamkorlik



Nordik universitetiga Finlyandiyaning YXHTdagi doimiy vakolatxonasi maslahatchisi **Ms Katarine Lindstedt**, Iqlim va atrof-muhit bo'yicha maxsus elchi va maslahatchi **Ms Edith Vakkilainen** tashrif buyurdilar. Nordikda namoyish etilayotgan fin sayyohi Karl Gustaf Emil Mannergeym ko'rgazmasi nufuzli mehmonlar e'tiborini o'ziga tortdi va iliq fikrlar bildirdilar.

Uchrashuvda yoshlarning YXHT loyihalaridagi ishtirokini kengaytirish va tobora dolzarb bo'lib borayotgan suv resurslari masalalarida yangi tashabbuslar xususida konstruktiv munozaralar olib borildi.

Global masalalarda yoshlarning o'rni va ahamiyati muhimligi e'tirof etilib, ularga yangi imkoniyatlar yaratish, salohiyatlarini jamiyatlarni rivojlantirish yo'lida birlashtirish yo'nalishlarida hamkorlikka kelishildi.

## Nordikda o‘tmishga sayohat!



**Akademik litsey o‘quvchilari Nordikdagi ko‘rgazma bilan tanishdilar**



*Markaziy Osiyo va Xitoy bo‘ylab sayohat qilishga imkoniyatingiz bo‘lsa avlodlar uchun nima qilgan bo‘lar edingiz yoki nima qoldirardingiz?*

Bundan yuz yil avval sayohat qilgan fin sayyohi **Karl Gustav Mannergeym** oson bo‘lmasa ham o‘sha davr haqida tasavvur beradigan noyob suratlar olib qoldirgan. Madaniyatlarni rasmlarga muhrlab qo‘ygan.

JIDU Akademik litseyi o‘quvchilari tarixiy noyob suratlar bilan kelib tanishib ketdilar.

O‘z davrining To‘marisi - "Oloy malikasi", "Xalq onasi" nomi bilan tanilgan Qurbonjon dodxohni qanday tasavvur qilasiz?

*Nordikdagi ko‘rgazmada uning asl suratini ham ko‘rish mumkin.*

## Raqamli transformatsiya: shaffof, aniq va maqsadli



*Raqamli transformatsiya davlat boshqaruvida yangi imkoniyatlar ochadi.*

Raqamli texnologiyalar orqali yangi ish o‘rinlari yaratish va onlayn mehnat bozorini kengaytirib borish mumkin.

Sun‘iy intellekt, "Big data", "blokcheyn" texnologiyalari yordamida esa aniq ma‘lumotlarga asoslangan holda resurslarni samarali taqsimlash imkoniyati mavjud.

Nordik universiteti Sanoatni boshqarish va raqamli texnologiyalar kafedrasini

mudiri, dotsent (PhD) **Munis Abdullayevning** "Xalq so‘zi" gazetasida nashr etilgan maqolasida mavzu bilan keng tanishish mumkin.

## Nordikda bayram!



Jamoamiz yigitlariga bayram muborak bo'lsin!



Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan universitet jamoasidagi qadrlı erkak-xodimlar uchun o'zgacha bayram tadbiri tashkil etildi.

Bayram tadbiri hazilomuz, tabassum bag'ishlovchi qiziqarli o'yinlar, ajoyib obrazlardagi chiqishlar bilan esda qoladigan bo'ldi.

Tadbir ayyom egalariga kutilgan va kutilmagan sovg'alar, kuy-qo'shiqlar, tabrik va tilaklar bilan qizg'in o'tdi.

## XNU kengashida navbatdagi himoyalar muvaffaqiyatli yoqlandi



Ilmiy kengashda talabgorlarning himoyasi bo'lib o'tdi



Nordik universiteti huzuridagi PhD.03/29.12.2022.I.157.01 raqamli Ilmiy kengashda navbatdagi himoya ishlari ko'rildi.

Kengashda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi **Yo'ldoshev Jahongir To'raboyevich** "O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish" mavzusidagi nazariy va amaliy ahamiyatli himoya ishi mohiyati bilan keng tanishtirdi.

Shuningdek, Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Isoqov Zafarjon Zokirjonovichning** "Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliq va yig'imlarni undirish mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari" mavzusidagi himoya ishi keng muhokama qilindi.

Har ikki nomzod PhD ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya ishlarini munosib yoqladilar.

## 24 nafar professor-o'qituvchiga Finlandiya ta'lim tajribalarini o'rganish bo'yicha tashkil etilgan malaka oshirish kursi sertifikatlari topshirildi



*Prime Education Finland (Finlandiya) ta'lim tashkiloti o'rtasidagi hamkorlik memorandumiga asosan oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlari va professor-o'qituvchilari uchun qo'shma malaka oshirish kursi yo'lga qo'yildi. Qo'shma malaka oshirish kursi 2024-yilning oktabr oyidan boshlab 144 soatlik oshirish kursida oliy ta'lim*

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-27-sonli (28.02.2023-y.) Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, Xalqaro Nordik universiteti huzuridagi "NORDIC TRAINING" malaka oshirish markazi va*



*Yuvaskula pedagogika universiteti, Xelsinki universiteti, Kareliya amaliy fanlar universiteti, JAMK universiteti va Shvetsiyadagi ta'lim muassasalarida olib borildi. Tinglovchilar tomonidan malaka oshirish kursining amaliy natijalari sifatida kichik guruhlarda tayyorlangan*

*muassasalarining 24 nafar professor-o'qituvchilari muvaffaqiyatli ishtirok etishdi. Kurs gibrid shaklida, 72 soat Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida va 72 soati xalqaro reytingda 500 talikdan o'rin olgan Finlandiya va Shvetsiya universitetlarida tashkil etildi. Malaka oshirish kursiga Finlandiyaning*







loyiha ishlari metodik qo'llanma sifatida chop etildi. Metodik qo'llanmada tinglovchilarning mutaxassisliklari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlari hamda Finlandiya ta'lim tizimining alohida jihatlari, ta'lim sifatini takomillashtirish tajribasi, ulardan O'zbekiston ta'lim tizimini rivojlantirishda foydalanish

loyiha ishlari metodik qo'llanma sifatida chop etildi. Metodik qo'llanmada tinglovchilarning mutaxassisliklari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlari hamda Finlandiya ta'lim tizimining alohida jihatlari, ta'lim sifatini takomillashtirish tajribasi, ulardan O'zbekiston ta'lim tizimini rivojlantirishda foydalanish 16-yanvar kuni sertifikatlarni topshirish tadbirida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining birinchi o'rinbosari Shohrux Daliev, Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktori Uzoqboy Begimqulov, Xalqaro Nordik universiteti rektori Sherzod Mustafoqulov hamda malaka oshirish kursi tinglovchilari ishtirok etdi.

## Yana bir talabamiz Koreyada ta'lim oladi!

*Nordik universiteti Janubiy Koreyaning Daegu universiteti bilan yangi ta'lim manbalari va resurslari bo'yicha tajribalar hamda talabalar almashish borasida faol hamkorlik qilmoqda.*

Hamkorlik natijasida Nordikning 1 nafar talabasiga Daeguda o'qish uchun grant taqdim etildi.

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi talabasi **Madinabonu**

**Mahmudaliyeva** ushbu nufuzli oliyog'ha o'qish uchun Koreyaga yo'l oldi. O'qish xarajatlari grant dasturi tomonidan qoplanadi.



## Nordik vakillari – Qo‘qon universitetida



Nordik universiteti rektori Sherzod Mustafakulov, dekan Elshod Umarov va professor Baxtiyor Salimov Qo‘qon universitetiga tashrif buyurdilar.

Tashrifda universitetning Qo‘qon shahri me‘morchilik tarixini o‘zida aks ettirgan Turizm majmuasi bilan tanishildi.

Shuningdek, Turizm va iqtisodiyot yo‘nalishi talabalariga yaratilgan sharoit va imkoniyatlar, majmuadan o‘rin olgan universitet muzeyi

faoliyati ko‘zdan kechirildi.

Rektor Sherzod Mustafakulov Qo‘qon universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, filologiya fanlari doktori, professor Zeboxon Qobilovaga universitet muzeyi uchun Nordik sovg‘asini taqdim etdi.

## Nordikda bolajonlar uchun yangi loyiha

*Bolaligimda qaysi kasb egasi bo‘lishni bilmas edim. Har bir kasbga qiziqardim, lekin aniq bir kasbni tanlay olmasdim.*

Hozirgi paytda bolalar va ota-onalar ham kasb tanlashda qiynalishadi. Bu borada ko‘p izlandim, kasbga oid kitoblar o‘qidim. Afsuski, o‘zbek kitob auditoriyasida kasblarga oid kitoblar uchratmadim.

Chet el yozuvchilarining kitoblarini tarjima qilish niyati ham bo‘ldi, lekin mentalitet va qadryatlarimizga mos

kelmas tomonlari topildi. "Bu kitoblarni o‘zim yozsamchi", dedim va ushbu mo‘jaz kitoblar turkumi dunyoga keldi. Ushbu mo‘jazgina kitobchalar maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim jarayonlarida pedagoglarimiz uchun muhim yordamchi qo‘llanma vazifasini ham o‘taydi.



*Bolajonlaringizni mutolaa zavqidan bebahra qoldirmang!*

**Muhammadali Mamadaliyev,**

*Xalqaro Nordik universiteti nashriyoti bosh muharriri, jurnalist*

## Trenddagi zamonaviy kasblar o'rganilmoqda



Nordik universitetida 2025-yil - "Ta'limda sifat bosqichi va ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish yili"!

Raqamli transformatsiya markazida talabalar bilan dasturlash va 3D modellar bo'yicha ilmiy izlanishlar, amaliy ishlarga e'tibor qaratilyapti.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari **"Robototexnika asoslari"** fanidan nazariy bilimlarini amalda qo'llab, ishlanmalar yaratdilar.

Dastlab NX dasturida robot mashinaning 3D modeli loyihalashtirildi. Uning dasturiy ta'minot qismi Arduino platformasi orqali ishlab chiqildi.



Universitetda yaratilgan sharoitlardan unumli foydalanilmoqda. Robot mashinaning qismlari markazda mavjud 3D printerlar orqali chiqarildi.

Talabalarda amaliy ko'nikmalar samarali shakllantirilmoqda, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi ta'minlanmoqda. Talabalarni zamonaviy kasblar bo'yicha doimiy rivojlantirish markaz faoliyatining asosiy maqsadlaridan.



## II O'zbekiston - Finlandiya biznes forumi: istiqbolli yo'nalishlarda hamkorlikning yangi bosqichi

Xalqaro Nordik universiteti tomonidan II "O'zbekiston-Finlandiya xalqaro biznes-forumi"ning "Zamonaviy va innovatsion qurilish texnologiyalari" mavzusidagi xalqaro anjumani tashkil etildi.

Finlandiyaning "Peikko", "Kone", "AINS Group", "Elematic" va "East office" yirik kompaniyalari hamkorligida o'tkazilfyotgan xalqaro forumda ikki



kengashi raisi **Alisher Jo'rayev** forumning ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tdi.

Forum doirasida Finlandiya kompaniyalarining eng zamonaviy qurilish texnologiyalari, innovatsion ishlanmalari, asbob-uskuntlari hamda qurilish konsepsiyalari namoyish etilishini ma'lum qildi. Finlandiyaning Markaziy Osiyodagi favqulodda va



davlat vazirlik va idoralari, dunyoning yetakchi fin kompaniyalari, 50 ta mahalliy kompaniyalar rahbarlari va mutaxassislari hamda OAVlar vakillari ishtirok etdilar.

Xalqaro Nordik universitetida ushbu forumning ochilishi bo'lib o'tdi. Finlandiyaning O'zbekistondagi faxriy Konsuli, Nordik universiteti Kuzatuv



muxtor elchisi **Ilkka Raisanen** forumda yetakchi fin kompaniyalari va mahalliy biznes vakillarining **B2B**, **B2G** uchrashuvlari tashkil etilishi o'zaro hamkorlik shartnomalari imzolash va kelajakda istiqbolli loyihalar bo'yicha hamkorlik qilishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab o'tdi.

O'zbekistonda iqtisodiyot sektorlarining jadal rivojlanayotganidan mamnunligini bildirdi.

Finlandiyaning eng katta aksiyadorlik jamoalarini o'z ichiga olgan "East office" kompaniyasi ijrochi direktori Janne Harjunpaa forum ishida barcha delegatlarga muvaffaqiyat tiladi. Biznes-forumda delegatlar tomonidan ikki mamlakatning o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirishga qaratilgan taqdimotlar namoyish etildi. "Peikko",



"Kone", "AINS Group", "Elematic" va "East office" kompaniyalarining innovatsion yechimlari, tajribalari, tadqiqot va biznes loyihalari, maqsadlari va O'zbekistonda tizimlarga olib kirilishi mumkin bo'lgan yangi texnologiyalari bilan tanishildi. O'zbekiston - Finlyandiya kompaniyalarining iqtisodiy munosabatlarini kengaytirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan qo'shma ishlab chiqarish va savdo ob'yektlarini yaratish, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, iqtisodiy sohalar uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ularning amaliyotlarini tashkil etish kabi qator yo'nalishlarda kooperatsiya aloqalarini o'rnatish imkoniyatlari mavjudligi ma'lum qilindi.

Forum doirasida B2B, B2G formatdagi uchrashuvlar o'tkaziladi va har tomonlama manfaatli hamkorlik borasida muzokaralar olib borildi. Ishbilarmon doiralar bilan o'zaro hamkorlik shartnomalari imzolandi va kelajakda istiqbolli loyihalar bo'yicha hamkorlik qilishga kelishildi.

**Ma'lumot uchun:** 2022-yil Xalqaro Nordik universiteti va "Saipro Group" tomonidan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi ko'magida O'zbekistonda ilk bor birinchi "O'zbekiston-Finlyandiya xalqaro biznes-forumi" o'tkazilgan. Unda ikki davlat vazirlik va idoralari, dunyoning yetakchi fin kompaniyalari, xususan, Nokia, Reka Sables, FinnPartnership, Honka, Kone, Suokone kabi 30 dan ortiq kompaniya rahbarlari va mutaxassislari ishtirok etgan.



## Talaba-yoshlarni ijtimoiy, iqtisodiy yo'qotishlardan asrash - e'tiborda



Nordik universitetida huquq-tartibot idoralari bilan hamkorlikda ikkita dolzarb mavzuda profilaktik tadbirlar o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi mas'ul xodimlari mayor A. Bilolov, kapitan Sh. Suyunov va Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasi katta inspektori, pokpolkovnik Baxtiyor Hamidov ishtirok etgan tadbirda **giyohvandlik illatlaridan o'goh bo'lish bo'yicha** ma'lumotlar berildi. Tadbirda ijtimoiy ildizlarga ega bu kasallik - narkotik moddalarga o'rganib qolish insonni tanazzulga olib borishi, yoshlarning ma'lum qismini yo'qotishlarga sabab bo'lishi ta'kidlandi. Giyohvandlik xavfidan xabardor qilish orqali oliy ta'lim muhitida narkogizm va giyohvandlik tarqalishining oldini olishga e'tibor qaratildi.

Shuningdek, Chilonzor tumani IIB AT sohasidagi jinoyatlarning oldini olish bo'limi katta inspektori Bahrom Tojiboyev ishtirokida talabalarning **kiberxavfsizlik sohasidagi bilim darajalarini oshirishga** qaratilgan tadbir o'tkazildi.

Profilaktik tadbirda milliy kibermakonda xavfsizlikni ta'minlashda yoshlar faolligini oshirish va global tendensiyalarni o'rgatishga ahamiyat qaratildi. Talabalarning jamiyatimizda xavfsiz va sog'lom muhit yaratishning zarur shartlari bo'yicha huquqiy bilimlari oshirildi.

Tadbir davomida mavzuga doir videoroliklar yoshlar e'tiboriga havola qilindi.

## Opera yulduzi - Nordik sahnasida!

*Ustozlar va talabalarimiz Jenisbek Piyazovning boy ijodini yaqindan miriqib tinglab, zavq oldilar.*

Dunyoning ko'plab mamlakatlari sahnalarini o'z ovozi bilan zabt etgan iste'dodli xonandaning har bir ijrosi sevib tinglandi. Uning yumorga boy tabiati barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

Konsert repertuaridan o'rin olgan, dunyo tillarida yangragan mashhur operalardan ariyalar **Musiqqa ta'limi** yo'nalishi talabalari uchun o'ziga xos **master-klass** vazifasini ham o'tadi.

Konsert davomida Jenisbek Piyazovning iste'dodli shogirdlaridan biri **Yasmina Xusniddinovaning** chiqishi, ayniqsa super ijro bo'ldi!

O'zbek va qoraqalpoq opera xonandasi, O'zbekiston, Qoraqalpog'iston, Boshqirdiston va Tatariston Xalq artisti, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining maslahatchisi Jenisbek Piyazovga **Xalqaro Nordik universiteti "Faxriy professori"** unvoni tantanali topshirildi.



## Doktorant va ilmiy izlanuvchilar uchun ilmiy-uslubiy seminar o'tkazildi

*Nordik ilmiy maktabida iqtidorli ilmiy kadrlar dolzarb yo'nalishlarda tadqiqotlar olib bormoqda.*

Nordik professor-olimlari mas'ulligida tadqiqotchilarning ilmiy faoliyat va ilmiy jarayonlarni boshqarish ko'nikmalari izchil rivojlantirib borilyapti.

Navbatdagi seminarida tadqiqotchi Baxtigul Tolipovaning xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning

investitsiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasi mavzusidagi ilmiy izlanishlari bo'yicha hisoboti tinglandi.

Doktorant Abdirauf To'qliyev sanoat korxonalarida moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish orqali monitoring va nazorat qilish mexanizmini takomillashtirish borasidagi ilmiy izlanish xulosalari bilan tanishtirdi.

Seminarida barcha izlanuvchilarga ilmiy tadqiqot ishlarini sifatli tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berildi. Shuningdek, yosh olimlarga doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash, mutaxassislikni chuqur o'rganish va izlanishlar olib borishga oid zarur tavsiyalar berildi. Ular o'qishning birinchi yilida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar, har uch oyda hisobotlar taqdim etish mezonlari bilan tanishdilar.





## Nordik rektori Sherzod Mustafakulov - "Eng yaxshi maqolalar" muallifi!



Nordik olimlari kunning eng dolzarb mavzulari bo'yicha o'z nuqtai nazarlari, sharhlari bilan markaziy nashrlarda faollar.

"Xalq so'zi" va "Народное слово" gazetalarini tahririyatida bosh muharrir O'tkir Rahmat va eng faol mualliflar, xususan rektorimiz Sherzod Mustafakulov o'rtasida samimiy suhbat bo'lib o'tdi.

"Eng yaxshi maqolalar" tanlovi doirasida chop etilgan dolzarb mavzulardagi maqolalari uchun professor Sherzod Mustafakulov tahririyat Diplomi va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

O'tgan 2024-yil davomida professor-olimning "Sehrlidir" dagi unutilmas muloqotlar, "Yo ilmi bo'ling yoki ilmga tayanib ish tutadigan...", "Вести дела с опорой на науку", "O'zbekiston - Estoniya: tizimli aloqalarning yangi bosqichi", "Uzoq istiqbolga mo'ljallangan loyihalar" sarlavhali qator maqolalari nashr etildi.

Shuningdek, "Yangi O'zbekiston ishbiarmonlar uchun qulay, iqtisodiyoti baquvvat va farovon mamlakatga aylanmoqda", "Yevropa Ittifoqi - Markaziy Osiyo yosh yetakchilar konferensiyasi: o'zaro hamkorlik va birdamlikni mustahkamlashdagi yangi odimlar", "Mehnat barometri: kasbiy bandlikni baholash O'zbekistonga qanday naf keltiradi?" kabi qator dolzarb mavzulardagi ilmiy-ommabop maqolalari gazetalar sahifalarida yoritildi



## Universitetni kompleks rivojlantirishning harakatlar rejasi tasdiqlandi



*Nordik universitetining 1-son yig'ilihi o'tkazildi. Unda universitetning yaqin istiqboliga doir 10 dan ziyod muhim masalalar ko'rildi.*

Kengash yig'ilishida dastlab barcha tuzilmalar tomonidan ishlab chiqilgan, universitetni **kompleks rivojlantirishning 2025-2027 yillarga mo'ljallangan harakatlar rejasi** uchun takliflar o'rganildi

va tasdiqlandi. Kun tartibidagi masala - ilmiy faoliyatga doir ishlarning 2024-yil uchun sarhisobi va 2025-yil rejasini tasdiqlash masalasi ko'rildi. Universitetning davlat ilmiy-texnika dasturlari va boshqa qator yo'nalishlar doirasida bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari keng tahlil etildi. Ilmiy salohiyatni oshirishga doir zarur vazifalar belgilandi.

Kengashda universitetning xalqaro reyting ko'rsatkichlarini mustahkamlash va ishlab chiqilgan mexanizmlar asosida takomillashtirish choralari to'g'risidagi masala ko'rildi. Xalqaro reyting ko'rsatkichlarini yaxshilash va takomillashtirish bo'yicha **7 ta asosiy taklif** ilgari surildi.

Shuningdek, Magistratura bosqichi talabalarining **magistrlik dissertatsiyalari himoyasi** va rasmiylashtirish, virtual olamda aks ettirish, **TasIMO-2025 olimpiadasini** tashkil etish va xalqaro darajada ommalashtirishning zamonaviy usul hamda vositalari masalalarida hisobotlar tinglandi, vazifalar taqsimlandi.



Kengashda kafedra professor-o'qituvchilarning o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy pedagogik va ilmiy tadqiqot ishlarini takomillashtirish, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari kesimida Yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish masalalari ham ko'rib chiqildi.

Universitet pedagog-o'qituvchilarining ilmiy unvon olishlari uchun tayyorlangan hujjatlari tanishtirilib, Kengash a'zolarilari tomonidan OAKga taqdim etish uchun bir ovozdan tasdiqlandi.

Shuningdek, o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlarni nashrga tavsiya etish holati bo'yicha hisobot tinglandi va ushbu jarayonni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari belgilandi.

*Kengashda ko'rilgan barcha masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.*

## Tursun Ali kitobi taqdimotiga bag'ishlangan adabiy anjuman o'tkazildi

*"Tursun Ali ajoyib ziyolilar yurti - Farg'onaning Quvasida, Quva anorzorlarida tug'ilgan. Yuragida hamon yoshlik shijoatini saqlagan, she'riyatda faol va kitoblari sevib o'qilayotgan adiblarimizdan biri.*

Tursun Ali ustozi Rauf Parfi, betakror iste'dod sohibasi Halima Xudoyberdiya kabi muhabbatini o'ziga xos yo'l bilan yuragidan chiqarib ifodalaydi..."

Adabiyot anjumanida O'zbekiston Qahramoni, yirik adabiyotshunos olim, tarjimon **Ibrohim G'afurov** Tursun Ali haqida ana shunday ko'plab iliq fikrlar bildirdi. Ustozlar, talaba-yoshlarni adibning hayot va ijod yo'li bilan tanishtirdi, misralaridan namunalar keltirdi. Shuningdek, tolibi ilm uchun zarur qimmatli manbalar nomini ma'lum qildi.



Adabiyot bayramida Xalqaro Nordik universiteti rektori **Sherzod Mustafakulov**, filologiya fanlari doktori **Suvon Meli**, o'zbek adabiyoti namoyandasi **Ulug'bek Hamdam** va boshqalar Tursun Ali ijodi, 2 jildlik yangi saylanmasiga adabiy chizg'ilar berdilar.

Anjumanda shoirning o'zi ham yoshlarni ijodidan bahramand etdi. **"Nordik taronasi"** ansambli ijodkorlari Tursun Ali she'rlariga bastalangan kuy-qo'shiqlar ijro etdilar.

*Nordik universiteti rahbariyati tomonidan mehmon adiblarga alohida ehtirom ko'rsatildi, esdalik sovg'alari taqdim etildi. Ibrohim G'afurov adabiy suhbatni tashnalik bilan tinglagan barcha ishtirokchilarga minnatdorchilik bildirdi.*



## Lourens texnologiya universiteti Prezidenti o'qish uchun borgan talabalarimiz bilan uchrashdi



Lourens (Lawrence) mintaqaviy universitetlar orasidagi reytingda 54-o'rin egallab turgan, AQShdagi texnologik rivojlangan 13 ta universitetdan biridir.

Lourens texnologiya universiteti Prezidenti, taniqli olim, doktor Tarek M. Sobb ushbu nufuzli oliygoxda o'qishni davom ettirayotgan talabalarimiz bilan uchrashdi.

Prezident va talabalarimiz o'rtasidagi muloqot samimiy ruhda o'tdi. Doktor Tarek Sobb talabalarni Lorens-Techning o'ziga xosligi, yangi

innovatsion ta'lim dasturlari va imkoniyatlari bilan tanishtirdi. Amerikada o'qish va muvaffaqiyatga erishishda zarur tavsiyalar berdi.

*Lawrence Tech - [www.ltu.edu](http://www.ltu.edu)*

## Nordik universiteti va O'zDJTU Akademik litseyi o'rtasida yangi hamkorlik yo'nalishlari belgilandi



Nordik universiteti tomonidan tashkil etilayotgan Amerika-O'zbekiston Preparatory kursida O'zDJTU Akademik litseyi o'quvchilarining onlayn ta'lim olishlariga imkoniyat yaratiladi.

Universiteti rektori Sherzod Mustafakulov va Akademik litsey ijrochi direktori Maqsudaxon

Obidova o'rtasida o'tgan uchrashuvda shu yo'nalishda hamkorlikka kelishildi. Shuningdek, qo'shma Foundation kursi tashkil etish, litsey o'quvchilarining TasIMO olimpiadasida ishtirokini kengaytirish, akademik litsey pedagoglari uchun Finlandiyaga xorijiy stajirovka tashkil qilish kabi qator istiqbolli yo'nalishlarda hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

## Xasan Sabirov - yil tadqiqotchisi!



Worldly knowledge ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash markazi tomonidan tashkil etilgan „Yil tadqiqotchisi-2024“ ilmiy maqolalar tanlovi g'oliblari e'lon qilindi.

Iqtisodiyot va biznesni boshqarish kafedrasini mudiri (PhD) **Xasan Sabirov**

**1-o'rin sohibi** bo'ldi. "Rivojlanayotgan O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirishda iqtisodiy ko'rsatkichlarning ahamiyati" mavzusidagi maqolasi bilan yil tadqiqotchisi nomiga savozor bo'ldi.

Tanlov doirasida Xasan Sabirov pul mukofoti, statuetka, maqolalar kitobi, diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.



## Pedagogik kadrlar tayyorlashni muvofiqlashtirish bo'yicha kichik guruh majlisi o'tkazildi

Respublika oliy ta'lim kengashi huzuridagi "Pedagogik kadrlar tayyorlashni muvofiqlashtirish" bo'yicha tuzilgan kichik loyiha guruhining vebinar (video-chat) ko'rinishidagi majlisi o'tkazildi.

Guruh boshlig'i, Xalqaro Nordik universiteti rektori, professor

**Sherzod Mustafakulov** rahbarligida o'tkazilgan majlisda respublikamizdagi

pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim tashkilotlari rektorlari va rahbar kadrlari ishtirok etdilar.

Majlisda kun tartibidagi masala - ishchi guruhning ish tartibi, konsepsiya va trayektoriyasini kelishib olish, pedagogika sohasida kadrlar tayyorlayotgan oliy ta'lim muassasalari to'g'risida **ma'lumotlar bankini** shakllantirish taklifi ilgari surildi.

Rektorlar va mutaxassislar bilan doimiy aloqa o'rnatish, sohada mavjud muammolar bazasini shakllantirish bo'yicha forum - **yagona platforma** tashkil etish to'g'risida so'z bordi.



*Muammolar bankini shakllantirish uchun universitetlar va maktabda ta'lim berayotgan o'qituvchilar, ish beruvchilar o'rtasida **Anketa so'rovnomalarining** savolnomasini ishlab chiqish takliflari ishchi guruh a'zolari tomonidan ma'qullandi.*

*Ko'rilgan masalalar yuzasidan muhokamalarda Termiz davlat pedagogika instituti, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Renessans ta'lim universiteti mas'ullarining taklif-mulohazalari, ular tomonidan o'rganilgan ta'lim muammolari tinglandi. Ushbu masala va muammolar yechimlari islohotlarga asos bo'lishi ta'kidlab o'tildi.*

*Nordik universiteti prorektori **Odil Qo'ysinov** kun tartibidagi ikkinchi masala pedagogikaga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalarini kompleks rivojlantirishning manzilli konsepsiyasini ishlab chiqishning bugungi kundagi ahamiyatiga ishchi guruh e'tiborini qaratdi.*

*Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini takomillashtirish, mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash, qabul va o'quv jarayonlarida kreativ pedagogik metodlarni keng qo'llash ko'nimlalarini shakllantirish borasida xalqaro va ilg'or tajribalarga to'xtaldi.*

*Majlisda turli masalalar ko'rildi. Miqdordan sifat ko'rsatkichlariga o'tish, pedagogik hamjamiyatning hamkorligiga erishish, faoliyatni muvofiqlashtirish uchun doimiy onlayn forum va muloqotlar o'tkazib borishga kelishildi.*



## Ta'lim eksporti: Qozog'iston delegatsiyasi Nordikda malaka oshirmoqda!

Qozog'iston maktablari direktorlari uchun Finlandiya ta'lim tizimining innovatsion yondashuv va modellari, sifatli ta'lim muhitini yaratish, bilimlarni boshqarish bo'yicha maxsus o'quv sessiyalari tashkil etildi.

Kurs ishtirokchilariga Finlandiyaning Aalto universiteti va Nordik universiteti professorlari **Aija Elg** va **Tapio Koskinen** Finlandiya maktab tizimlarining ilg'or tajribalari asosida yangi xalqaro bilim hamda ko'nikmalarni berdilar.

Trening davomida bilimlarni boshqarish va innovatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha muhim nazariy

**model - SECI** (Socialization, Externationalization, Combination, Internalization)ni qo'llash samaralari bo'yicha ma'ruza tinglandi.

Bilimlarning ijtimoiy, aniq va yashirin shakllarining o'zaro almashinuvi, ularni o'rganish hamda foydalanish, jamoaviy ishlash, amaliy mashg'ulotlar, yangi g'oyalarni loyihalash bo'yicha keng bilimlar berildi. Aniq bilimlarni birlashtirish va yangi bilimlar yaratish, yangi strategiyalar ishlab chiqishga qaratilgan ushbu modelning samarasi ochib berildi.

Qozog'istonlik ta'lim vakillari Finlandiya ta'lim tizimining innovatsion yondashuvlaridan biri - **Learning Cafe** tamoyilini ham katta qiziqish bilan o'rgandilar. Ushbu yondashuv o'quvchilarni mustaqil o'rganish, hamkorlik va kreativlikni rivojlantirishga yo'naltiradigan eng yaxshi yondashuvlardan biridir.

Kurs davomida ta'limda o'qituvchining amaliy bilimlarga asoslanishi, o'quvchilarni real hayotiy vaziyatlarda bilimlarni qo'llashga o'rgatish, kasbiy rivojlanishlariga katta e'tibor berish muhimligi ta'kidlandi. O'z sinflarida innovatsion usullarni qo'llashlari uchun samarali modellar o'rgatildi.

Shuningdek, ishtirokchilar ta'lim sifatining xalqaro monitoringi tizimida xalqaro **PISA dasturi, 2025-2026 yillarda o'qish savodxonligini** o'lchashdagi konseptual o'zgarishlar haqida ham muhim ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

*Qozog'istonlik pedagoglar uchun bu yangi bilimlar kelgusida ta'limni yaxshilash va yangi yutuqlarga asos bo'ladi.*



Ta'lim eksporti: Qozog'iston delegatsiyasi Nordikda malaka oshirmoqda!



## Xalqaro Nordik universiteti delegatsiyasi Malayziyada ta'lim safarida bo'lib turibdi



**Nordik delegatsiyasi Malayziya-O'zbekiston oliy ta'lim forumi va ko'rgazmasida ishtirok etishmoqda**



Har ikki davlat oliy ta'lim vazirliklari hamkorligida "Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda oliy ta'lim sohasidagi imkoniyatlar va tashabbuslar" mavzusida birinchi O'zbekiston-Malayziya ta'lim forumi o'tkazildi.

Nufuzli anjuman ochilishida davlatlarimiz Madhiyalari yangradi, madaniy chiqishlar namoyish etildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri **Qo'ng'irotboy Sharipov** hamda Malayziya Oliy ta'lim vaziri **Zambry Abdul Kadir** ikki mamlakat o'rtasida oliy ta'lim sohasida mustahkam hamkorlik yo'lga qo'yilganini alohida ta'kidladilar.

Forum doirasida Xalqaro Nordik universiteti hamda Malayziyaning Osiyo Tinch okeani texnologiya va innovatsiya universiteti (**APU**), Sulton Idris Pedagogika universiteti (**UPSI**), Utara universiteti (**UUM**) kabi qator nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik memorandumlari imzolandi.

Nordik universiteti qo'shma ta'lim dasturlariga Malayziya yoshlarini jalb etish va ularning Finlandiyada o'qishni davom ettirishlariga ko'maklashish, talabalar almashinuvi, professor-o'qituvchilarning malaka oshirish dasturlarini joriy etish kabi istiqbolli

yo'nalishlarda muzokaralar olib borildi.

Shuningdek, Toshkent shahrida "O'zbekiston-Malayziya biznes va ta'lim forumi"ni tashkil etish, xorijiy investorlar bilan talabalarga qulaylik yaratishni ko'zda tutuvchi loyihalarni amalga oshirish borasida kelishuvlarga erishildi.



## Nordik bilan pedagogik rivojlanish tomon qadam qo'yildi

*Nordik universitetida Qozog'iston pedagoglari uchun o'qish va amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi.*

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bo'lim boshlig'i **Furqat Xolmirzayev** o'quv kursi ishtirokchilariga xalqaro dasturlar va tadqiqotlarda ishtirok etish bo'yicha boy tajribalarini yetkazdi.

Ta'limdagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) va PIRLS xalqaro tadqiqotlari haqida muhim ma'lumotlar taqdim etildi.

O'quv mashg'ulotlarida o'quvchilar savodxonligi, matnni tushunish, talqin

qilish va undan foydalanish qobiliyatlarini oshirish hamda xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish usullariga e'tibor qaratildi.

O'quv sessiyalari davomida pedagoglar ta'lim uchun yanada samarali strategiyalar ishlab chiqishda zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'ldilar.

Ushbu tashabbus Qozog'iston ta'lim tizimining xalqaro maydondagi raqobatdoshligini oshirishga xizmat qiladi.



Nordik bilan pedagogik rivojlanish tomon qadam qo'yildi



## Malayziyadagi nufuzli universitetlar - yangi hamkorlarimiz!



Malayziyada muhim hamkorlik hujjatlari imzolandi

*Malayziyada ta'lim safarida bo'lib turgan delegatsiyamiz Perak shtatida o'tkazilgan O'zbekiston-Malayziya birinchi ta'lim forumi doirasida plenar va qator sessiyalarda ishtirok etdilar.*

Ushbu ta'lim tashrifi davomida Nordik universiteti va Malayziyaning nufuzli universitetlari o'rtasida muhim kelishuvlarga erishildi. Shartnoma va memorandumlar imzolanib, qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha

muzokaralar olib borildi. Malayziya **Xalqaro Islom universiteti (IUM)**, **Sulton Idris Pedagogika universiteti (UPSI)** va **UCSI** xususiy universitetlari rahbariyatlari hamrohligida xorijiy akademik tajribalar bilan yaqindan tanishildi. Tashrif davomida har ikki tomon uchun manfaatli hamkorlik aloqalari o'rnatildi.

*Xususan, Toshkent xalqaro matematika olimpiadasi - TasIModa Malayziya yosh matematiklar jamoalari ishtirok etadilar.*

Hamkorlikda xalqaro ilmiy va qo'shma grantlarda ishtirok etiladi. Talabalar uchun **"O'zbekiston bo'ylab sayohat qil", "Malayziya bo'ylab sayohat qil"** yozgi ta'lim turizmi tashkil etiladi.

Shuningdek, Malayziya talabalarining Nordik qoshida tashkil

etilayotgan **Rovan universitetining (AQSh) Markaziy Osiyo bo'yicha markazida** ta'lim olishlariga sharoit yaratiladi.



## **Finlandiyada ta'lim innovatsiyalari: O'zbekiston pedagoglari malaka oshirdi**

*15 nafar pedagoglar Nordik prorektori Odiljon Qo'ysinov rahbarligida Finlandiya jamiyatiga kuchli ta'sirga ega tadqiqotlar universiteti - Jvyaskylada ilmiy amaliyot o'tadilar.*

Delegatsiya a'zolari universitetning noyob ta'lim tizimi, innovatsiyalar sohasidagi eng so'nggi yutuqlari va tadqiqotlari bilan yaqindan tanishdilar.

Jvyaskyla universiteti nafaqat ilmiy

tadqiqotlar, balki innovatsion g'oyalarni tijoratlashtirish bo'yicha ham boy tajribaga ega. Malaka oshirish jarayonida universitet olimlaridan bu tajribalar keng o'rganildi.

Shuningdek, universitetning zamonaviy kutubxona tizimi, unda saqlanayotgan noyob kitoblar, tadqiqot materiallari va elektron resurslardan foydalanish imkoniyatlari bilan tanishildi.

Bu malaka oshirish o'quvi pedagoglar uchun nafaqat yangi bilimlar olish, balki kelgusida yurtimiz ta'lim sifatini oshirishda qo'llash mumkin bo'lgan tajribalarni o'zlashtirish imkoniyatini berdi.

Finlandiya ta'lim modeli O'zbekiston uchun qanday natijalar keltirishi mumkin? Ilmiy amaliyot jarayonlarida shu kabi savollarga javoblar topildi.



## Shoir va adib Oybek haqida suhbat qurildi



**Adiblar xiyobonida  
adabiyot olamiga sayohat!**

*Sirtqi ta'lim talabalari bilan Adiblar xiyobonida adabiyot olamiga sayohat uyushtirildi.*

Adabiy suhbat mavzusi taniqli o'zbek adibi, shoir va tarjimon **Oybek** she'riyati, uning adabiyotshunoslik hamda badiiy tarjimachilikka qo'shgan hissasiga bag'ishlandi.

Suhbat davomida adibning "**Qutlug' qon**", "**Navoiy**" romanlari, "**Nur qidirib**", "**Bolalik**" kabi avtobiografik asarlari, she'riy to'plamlari va jahon adabiyotidan nafis tarjimalariga nazar solindi.

Talabalar Oybekning ilmiy va adabiy merosi bilan birga Adiblar xiyoboni ansamblida qad rostlab turgan atoqli adiblar haqida ham ma'lumotlarga ega bo'ldilar.



## Respublikamizda pedagog kadrlar tayyorlash tizimi yanada rivojlantiriladi



**Pedagog kadrlar tayyorlash tizimi  
yanada rivojlantiriladi**

*Nordik universitetida O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti (O'zFIPI) rektori va tuzilmalari rahbarlari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.*

Respublika oliy ta'lim Kengashi huzurida kichik loyiha guruhlarini faoliyat yurityapti. **Xalqaro Nordik universiteti rektori Sherzod Mustafakulov** pedagog kadrlarni tayyorlashni muvofiqlashtirish ishlariga boshchilik qilmoqda.

Nordik huzurida pedagogika sohasida

kadrlar tayyorlayotgan oliy ta'lim tashkilotlari rektorlari va mutaxassislari bilan doimiy aloqa o'rnatish, sohada mavjud muammolar bazasini shakllantirish bo'yicha **platforma** tashkil etilmoqda.

Bugun kichik loyiha ishchi guruhi a'zosi - **O'zFIPI rektori Shahzoda Negmatova** boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurdi.



Uchrashuvda oliy ta'lim tizimida natijadorlikka erishish, yangi tashabbuslarni ishlab chiqish, zamonaviy fikrlaydigan amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha muhim takliflar ilgari surildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan **18-20-noyabr kunlari Oliy Majlis palatalari majlislarida** belgilangan strategik vazifalar o'rganib chiqilib, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar xususida fikr almashildi.

Oliy ta'limda sifat ko'rsatkichlariga erishish, o'quv-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish va qabul parametrlarini shakllantirishda ish beruvchilar va mehnat bozori ehtiyojlarini to'liq inobatga olish ustuvor vazifalar ekanligi ta'kidlandi.

Pedagog kadrlar tayyorlashda oliygoch bitiruvchilari va mehnat bozori talabi o'rtasida vujudga kelayotgan nomutanosibliklarni bartaraf etish, dual ta'lim, ilmiy-innovatsion faoliyatni zamon talablariga muvofiq tashkillash masalalarida ham so'z bordi. **Nordik universiteti ko'magida** pedagog kadrlarning malakasini oshirish, ta'lim safarlari tashkillab, xorijiy tajribalarni o'rganishga kelishildi.

Uchrashuvda pedagog kadrlar tayyorlashda oliygochlarda o'zaro uyg'un siyosat olib borish, kichik guruh barcha a'zolarini jalb etgan holda pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha konsepsiya takliflarini yanada boyitish xususida so'z bordi.

Kichik guruh faoliyati doirasida pedagog kadrlar salohiyati va kasbiy mahoratini oshirish orqali kelgusida maktablar ta'limini yangi sifat bosqichiga olib chiqish chora-tadbirlariga e'tibor qaratilmoqda.

Zero, yoshlar ong-u tafakkurida milliy g'urur va umumbashariy qadriyatlarga hurmat hissini kamol toptirish, ularni zamonaviy bilim va dunyoqarash, daromadli kasb egalari, ilm-fan, IT texnologiyalar bilimdoni etib tarbiyalash har jihatdan pedagoglar mahorati va kasbiy ko'nikmalarga egaligiga bog'liqdir.

## Bir asrning ikki dahosi: Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur



Nordik universitetida respublika "Nuroni" jamg'armasi va O'zLiDeP Siyosiy Kengashi Ijroiya qo'mitasi hamkorligida she'riyat va ma'naviyat ulug'lari, davlat arboblari Navoiy va Bobur tavallud kunlariga bag'ishlangan adabiy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.



Nordik universiteti rektori **Sherzod Mustafakulov** navoiyshunoslik va boburshunoslikning yangi ufqlari, ular ijodining noyob qirralariga ishtirokchilar e'tiborini qaratdi. Asrlar

osha asarlaridagi hikmatlari, insoniy fazilatlar haqidagi qimmatli pand-nasihatlari tafakkurimizni boyitishda davom etayotganini e'tirof etdi.

Anjumanda so'z olgan "Nuroni" jamg'armasi respublika boshqaruvi faollari, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari, professor-olimlarning buyuk daholar haqidagi ma'ruzalari tinglandi.

Anjuman g'azallar, kuy-qo'shiqlar ijrosi bilan uyg'un o'tdi. Nafaqat o'zbek xalqining, balki butun Sharq madaniyatining eng buyuk namoyandalari sifatida kelajak avlodga ibratli jihatlari yodga olindi. Zero, bugun ham ularning asarlari bizga o'zlikni anglash, adolatli va ma'rifatli hayot kechirishda yo'l ko'rsatib turibdi.

## Navoiyshunos olim sabog'i: Navoiyni ko'nglimiz mulkiga aylantiraylik...



Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti direktori, navoiyshunos Olimjon Davlatov bilan ijodiy uchrashuv o'tkazildi.

Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligiga bag'ishlangan uchrashuvda talaba-yoshlar mutafakkirning dunyo xalqlari tafakkuridagi o'rni, jahon adabiyoti va madaniyatiga qo'shgan ulkan hissalarini bilan keng tanishtirildilar.



Navoiyshunos olim fevral oyini ma'naviyat, adabiyot va ma'naviy poklanish oyi sifatida e'tirof etib, yoshlarni Navoiy ibratlarini teran o'rganish va anglashga chorladi.

Navoiy o'zbek adabiy tili mezonlarini ishlab chiqdi. Navoiyga qadar turkiy xalqlar fors, arab tillaridan foydalangan bo'lsa, mutafakkir alloma saboqlari bilan o'zbek adabiy tilida ijod qilina boshlandi. Xalqimiz to'y-marosimlarida o'zbekcha qo'shiqlar yangradi. Maktublar o'zbek tilida bitila boshladi.

Shundan so'ng barcha xalqlarda o'z tillarida milliy adabiyotlar shakllandi. Shu bois Navoiy nafaqat o'zbek adabiyoti, balki dunyo tafakkuri rivojida ham muhim o'rin tutadi.

Xalqimizning bosh orzusi farzandlar kamoli. Bunda esa Navoiyni anglash va farzandlarga ham anglatish muhim. Navoiyni bilsak, uning asarlariga

muhabbatni yoysak oilalar mustahkam bo'ladi, rizq halol topiladi, yolg'on va turli illatlardan yiroqlashiladi. Navoiy g'azallarini yodlash orqali fikrni aniq bayon qilish qobiliyati shakllanadi. Navoiy o'smirlilik yillarida o'zi sevgan shoirlarning 50 ming baytdan ortiq she'rlarini yod bilgan. Shu bois uning fikrlari hozir ham dolzarb. Navoiyni har birimiz ko'nglimiz mulkiga aylantiraylik...- dedi Olimjon Davlatov.

Uchrashuvda Nordik universiteti rektori **Sherzod Mustafakulov** tomonidan ham Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning bebaho merosi, o'z davrida davlat arbobi sifatida ilm-fan va davlat ishlari rivojiga qo'shgan hissalarini haqida iliq fikrlar bildirildi. Madrasalar, kutubxonalar, ilmiy markazlar barpo etib, ilm-fan, san'at ahlini qo'llab-quvvatlashga e'tiborlari tahsinga loyiqligi ta'kidlandi.

Tadbirda Alisher Navoiy g'azallarini yod olgan bakalavriyat va magistratura bosqichi talabalari va ustozlar ishtirokida **"G'azal yodlab mukofot oling!"** tanlovi o'tkazildi. Navoiydan 100 g'azal tanlovida g'olib talabalar Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondining pul mukofotlariga sazovor bo'ldilar.

*Magistrant **Gulnoza Toshpo'latova** va bakalavriyat bosqichi talabasi **Ibrohim Rashidovni** yutuqlari bilan tabriklaymiz!*

## Nordik universitetida xalqaro hamkorlik sari yangi qadamlar



**Yangi hamkorlik istiqbollari belgilandi**

Nordik universitetiga YeXHTning O'zbekistondagi loyihalari koordinatori Antti Karttunen va Qirg'izistonning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Duyshonkul Chotonovlarning tashrifi bo'lib o'tdi.

Samimiy muloqot davomida Qirg'iziston oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik: talabalar almashinuvi, qo'shma konferensiya va seminarlar o'tkazish, Nordik universitetida ochilayotgan AQSh bilan qo'shma ta'lim dasturlarida qirg'iz yoshlarining ta'lim



olishini yo'lga qo'yish xususida so'z bordi.

Nufuzli mehmonlar universitetda namoyish etilayotgan Karl Gustaf Mannergeym fotosuratlarini ko'rgazmasini katta qiziqish bilan tomosha qildilar. Universitet dil izhorlari kitobiga iliq taassurot va tilaklarini yozib qoldirdilar

## Aql va adabiyot sinovi: Nordikda "Brain-ring" bahsi

Adabiyot haftaligi doirasida "Brain-ring" intellektual o'yini qizg'in kechdi.

Talabalar Alisher Navoiy va Bobur tavalludiga bag'ishlangan adabiy, nazmiy va ijodiy savollar asosida zakovat bahsiga kirishdilar. Jami 9 ta jamoaning adabiy savodxonligi sinaldi.

G'OLIBLARIMIZ!

- 1-o'rin - "The Boys"
- 2-o'rin - "Iqtisodchilar"
- 3-o'rin - "Legitim".

Bilimdonlarimizni tabriklaymiz!



## Kitoblashamiz!": Nordikda kitobxonlar safi kengaydi



**Adabiyot haftaligida**



14-fevral - shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 542 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan kitobxonlar tanlovi qizg'in kechdi. "Kitoblashamiz" loyihasi doirasida talabalarimizga **"Suxandonlar klubi"** kanalida audio kitob o'qib eshittirilib, o'nlab talabalar ovozli chatlarda faol qatnashgan edilar. Bugungi kitobxonlik tadbirida esa munozaralar yanada qizg'in kechdi. Savollarga eng ko'p to'g'ri javob bergan talabalar dekan sovg'asi bilan taqdirlandilar. Adabiy anjumanda milliy liboslarimiz, urf-odat va qadriyatlarimiz keng targ'ib etildi. Bobur g'azallariga bastalangan kuy-qo'shiqlar davraga jo'shqin ruh bag'ishladi.

## Buyuk Britaniyalik Charles Normandan qiziqarli master-klass!



**Speaking club mehmoni - Charles Norman!**



Speaking club tinglovchilari xorijlik speaker ishtirokidagi mashg'ulotda ingliz tilida so'zlashish mahoratini oshirdilar.

Shuningdek, talabalarning ekologik taraqqiyot omillari, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikning o'рни borasida dunyoqarashlari boyitildi. Xalqaro konferensiyalarda xorijiy tilda ma'ruza qilishda e'tiborli jihatlar xususida ham bilimlarga ega bo'ldilar.



## Zakovat: Talabalar uchun aql charxi va do'stlik maydoni!

*Nordik universiteti "Zakovat" klubi talabalar o'rtasida intellektual muhitni yanada jonlantirdi!*

O'ndan ortiq talabalar jamoalari bir maqsad sari birlashib, bilimdonlik, mantiqiy fikrlash va jamoaviylik ruhida bellashdilar.

10-tur yakunlari bo'yicha eng kuchli jamoalar aniqlanib, universitet rahbariyati tomonidan pul mukofotlari bilan taqdirlandi!

1-o'rin - "Nordik legends"

2-o'rin - "Faqat talabalar"

3-o'rin - "Aura+"

Mana bizning g'olib jamoalarimiz!

Zakovat nafaqat bilim, balki bahslashish madaniyati va do'stlik rishtalarini ham mustahkamladi.



## Nordikning iqtidorli talabalari jamiyat rivoji uchun ilk qadamlarini qo'ydilar!

*"Bo'lajak olim" ilmiy g'oyalar tanlovida 3 nafar talabamiz katta muvaffaqiyatlarga erishdilar.*

**Munira Elmuratova** (Iqtisodiyot yo'nalishi), **Ilmurod Kungratov** (Data Science mutaxassisligi) va **Iqboljon G'anijonov** (Kompyuter injiniringi yo'nalishi) tanlov tashkilotchilari tomonidan munosib taqdirlandilar.

*Ularga jami 264 730 000 so'mlik Sertifikatlar taqdim etildi.*

*Tantanali tadbirda iqtidorli talabalarimiz taklif qilgan loyihalar jamiyatimizga samara keltirishiga ishonch bildirildi. Ayniqsa, shogirdlari g'alabasi ustozlarimizga katta quvonch bag'ishladi!*

*Yosh olimlar ma'lumotlar bazasidan Nordikning ushbu uch nafar iqtidorli talabalari ham o'rin oldilar.*



**Nordikning bo'lajak olimlari taqdirlandilar!**

## Bookshare: kitoblar orqali bilimlar almashilmoqda!



*Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va bilim almashish maqsadida bookshare tadbiri o'tkazildi.*

Ishtirokchi-ustozlar o'zlari sevib o'qigan va boshqalar bilan ham bo'lishmoqchi bo'lgan kitoblarini taqdim etdilar. Ularning mualliflari, qisqacha mazmuni haqida fikr almashildi.



"Qo'rg'onlangan oy", "Bugungi kunlar", "Yapon zobiti", "Qoyadagi atirgul", "Dunyoning eng buyuk savdogari" kabi qator badiiy, publisistik, hayotiy va ilmiy kitoblar yangi egalarini topdi.



## Talabalarimiz kelajakni o'zgartiruvchi startap yaratdilar



*Xalqaro biznes yo'nalishi talabarlari Nizomiddin Asomov va Abdusaid Mahmudov ilmiy rahbar Gulchehra Husanova boshchiligida innovatsion biznes loyiha ishlab chiqdilar.*

Ularning **"Kasalliklarni tashxislash uchun sun'iy intellekt platformalari"** nomli startaplari xalqaro ahamiyatga ega bo'lib, deponent va patentga ega bo'ldi.

Mazkur loyihada yangi ish o'rinlarini yaratish bilan birga, minglab insonlarga yuqori sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish imkoniyatlari ko'zda tutilgan. Loyiha tibbiy xizmat sohasida katta o'zgarish yasashga xizmat qiladi.

## Buxoroda "Prokuror sovrini" olimpiadasining 2-final bosqichi shaffof o'tkazildi!



Buxoroda o'qituvchilar ishtirokida "Prokuror sovrini" olimpiadasi o'tkazilmoqda



Buxoro viloyati prokuraturasi, Xalqaro Nordik universiteti va IDC hamkorligida tashkil etilgan olimpiadada hududdagi eng tajribali matematika va fizika fanlari o'qituvchilari ishtirok etishdi. Olimpiada jarayoni tashkilotchi muassalardan birlashtirilgan mas'ullar nazoratchiligida, kameralar kuzatuvida shaffof o'tkazildi.

Ma'lumot o'rnida, olimpiadaning 1-onlayn bosqichida Buxoro viloyatidagi 13 ta shahar-tuman maktablarining 2372 nafar matematika va fizika muallimlari o'z bilim, ko'nikmalarini sinovdan o'tkazdilar.

### MATEMATIKA FANI BO'YICHA:

Ro'yxatdan o'tganlar: 2139 nafar.  
Musobaqada qatnashganlar: 1659 nafar.  
Ikkinchi bosqichga o'tganlar: 50 nafar.

### FIZIKA FANI BO'YICHA:

Ro'yxatdan o'tganlar: 857 nafar.  
Musobaqada qatnashganlar: 713 nafar.  
Ikkinchi bosqichga o'tganlar: 48 nafar.

## Olimpiadaning Toshkent viloyati bosqichiga Xalqaro Nordik universiteti mezbonlik qildi



Mazkur viloyatdan 3-11-sinflar doirasida 179 nafar yosh bilimdonlar ikkinchi bosqichda ishtirok etish imkoniyatini qo'lga kiritishgan. Ishtirokchilar kameralar bilan jihozlangan xonalarda hakamlar kuzatuv ostida topshiriqlarni bajardilar. Olimpiada barcha uchun teng sharoitda, shaffof o'tkazildi.

## Sergey Stanovkindan master-klass: mamlakat brendini yaratishda OAVning o'рни

Xalqaro Nordik universiteti "Uzreport jurnalistika, media va kommunikatsiyalar akademiyasi"ga BBCning Yevrosiyo bo'yicha tijorat vakillari boshlig'i, "European News Academy" va "Dars consulting" direktori Sergey Stanovkin tashrif buyurdi.

BBC tahririyatining tajribali vakili bilan Jurnalistika yo'nalishi va mutaxassisligi



talabalarining uchrashuvi tashkillandi. Talabalar bilan muloqotda **Sergey Stanovkin** xalqaro OAV va kommunikatsiyalar sohasidagi tajribalari, tijoriy televizion dasturlarni boshqarish mahorati, global hamkorliklarning innovatsion imkoniyatlarini targ'ib etish bo'yicha ko'nikmalarini yetkazdi.

Ma'ruzachi stereotiplar masalasiga to'xtalib, ularni o'rganish va shakllantirish juda muhimligini e'tirof etdi. Stereotiplar bilan kurashish qiyinligi, ammo ko'pincha ulardan foydalanish mumkinligini qayd etib o'tdi.

Uchrashuvda talabalarga qator OAVlarning brend yaxlitligi va nufuzi darajalari bo'yicha ham tadqiqiy ma'lumotlar taqdim etildi. Ishonchlik va obro' darajalari, ularning jamoatchilik orasida qabul qilinishi diagrammalar asosida sharhlab berildi. "Davlat kommunikatsiyalari, xususan mamlakat brendi va investitsiyalarni targ'ib qilish sohasida xodimlarning shaxsiy malakasi muvaffaqiyat omili hisoblanadi. Bu shunchaki axborotni ishlab chiqish va tarqatish emas, balki strategik kommunikatsiyalar san'atini egallash va umumiy brend maqsadlariga muvofiq harakat qilishni anglatadi.

Jurnalistning intervyu jarayonida shaxsiy muloqot ko'nikmalari, qiyin savollardan qochish qobiliyati ham davlatning PR faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Intervyu jarayonida faqatgina axborotni chuqur tahlil qilish emas, balki materialni ijodiy taqdim etish ham muhim.

Axborot muhitini to'g'ri baholash, OAV platformalarini to'g'ri tanlash va ulardan unumli foydalanish, tezkor tahlil qilish, tekshirish va eng samarali formatda yetkazish qobiliyati muhimdir. Soxta yangiliklar mamlakat imidjiga putur yetkazishi mumkin bo'lgan zamonda jurnalistning axborotni tez va aniq tekshirish, tasdiqlash va yolg'on ma'lumotlarga qarshi kurashish qobiliyati juda muhimdir", dedi **Sergey Stanovkin**.

Muloqotda OAV platformalarini tahlil qilish, ularning miqdoriy va sifat jihatlarini hisobga olish muhimligi ham ta'kidlandi.



Media strategiyasida muvaffaqiyat moddiy va nomoddiy omillarning uyg'unligiga bog'liqligi, OAV manbasining ishonchligi ko'pincha xabardagi yangilikdan ham ko'proq ahamiyat kasb etishi aytib o'tildi.

Shuningdek, tomoshabinlarning turli brendlar, masalan **BBC World News, Bloomberg, CNBC, CNN**ni tomosha qilishi va qanday qabul qilayotgani turli

indikatorlar asosida tahlil qilindi. Jumladan, ishonchli, ta'sirli, rag'batlantiruvchi, doim birinchi xabardor qiluvchi, majburiy ko'riluvchi kabi indikatorlarda har bir brendning qadriyatlar aks etishi ma'lum qilindi.

Muloqot davomida ma'ruzachi turli mamlakatlarning kelajak brendlarini yaratishda ahamiyatli jihatlar bo'yicha ham tajribalari bilan bo'lishdi. Norvegiya, Germaniya kabi qator davlatlarning o'ziga xosligi ochib berilgan videomateriallar namoyish etildi.

Mamlakat brendining global ijtimoiy media muloqotlarida tilga olinishi, ilg'or texnologiyalari, merosi va madaniyati, turmush darajasi, qaysi sohalarda eng tajribali ekanligi, tabiiy go'zalligi, ekologik standartlarga muvofiqligi borasidagi aniq, tahliliy ma'lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiqligini aytib o'tildi.

Britaniyaning DARS FILMS studiyasi tomonidan Qozog'iston Tashqi ishlar vazirligi buyurtmasi asosida tayyorlangan 90 soniyali mini-filmdan ayrim lavhalar namoyish etildi. Film asosida zamonaviy Qozog'istonning rivojlanish tarixi, raqobatdosh afzalliklari va yutuqlarini taqdim etish uslublariga nazar solindi. O'tmish va hozirgi kun uyg'unligi orqali mamlakatning dinamik rivojlanishi ochib berilib, mamlakat kelajak brendi ulkan rivojlanish salohiyatiga ega sifatida ko'rsatildi.

Ma'ruzada mamlakat imidji va brendini tanitishda jurnalistlar oldida turgan maqsad, vazifalar, yechimlar har jihatdan ochib berildi.

Master-klassda globalizatsiya va raqamli transformatsiya davrida audiovizual OAVning kelajagiga keng nazar tashlandi. Talabalar o'zlarini qiziqtirgan ko'plab savollarga javoblar oldilar.

BBCning televideniye, radio xizmatlari va veb-sayt kontentlari yaratishdagi mukammal tajribalari talabalar, jurnalistlar tayyorlovchi o'qituvchilar uchun o'ziga xos tajriba maktabi vazifasini o'tashi va bu borada BBC Xalqaro Nordik universiteti **"Uzreport jurnalistika, media va kommunikatsiyalar akademiyasi"** bilan hamkorlikka tayyorligi ma'lum qilindi.

Universitet rahbariyati tomonidan Sergey Stanovkinga **Xalqaro Nordik universiteti Faxriy professori unvoni** topshirildi.

Nufuzli mehmon Nordik dil izhorlari kitobiga iliq fikrlarini yozib qoldirdi.

## O'zbekiston-Pokiston: Janubiy va Markaziy Osiyoni birlashtiradigan ishonchli hamkorlik



*Pokiston Bosh vaziri Shahboz Sharif boshchiligidagi delegatsiyaning 25-26-fevral kunlari kutilayotgan O'zbekistonga tashrifi ikki davlat o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik an'analarning davomi sifatida mintaqaviy o'zaro bog'liqlikdagi sa'y-harakatlarni yangi bosqichga olib chiqadi. Nufuzli tashrif oldidan "Xalq so'zi" gazetasida Xalqaro Nordik universiteti*

rektori, professor Sherzod Mustafakulovning mamlakatlarimizning istiqbolli sohalardagi hamkorliklari va navbatdagi tashrifdan kutilayotgan kelishuvlarga bag'ishlangan maqolasi nashr etildi.

## Buxoroda "Prokuror sovrini" olimpiadasi g'oliblari aniqlandi!

**BUXORODA "PROKUROR SOVRINI" OLIMPIADASI MATEMATIKA FANI G'OLIBLARI**

1		Abdurashid Qo'chqorov	54.8 ball
2		Ismoil Po'lotov	51.5 ball
3		Behruz Avezov	43.1 ball
3		Asadbek Nurmurodov	43.1 ball

[www.olympiad.nordicuniversity.org](http://www.olympiad.nordicuniversity.org)

*Buxoro viloyati prokuraturasi, Xalqaro Nordik universiteti va IDC hamkorligida tashkil etilgan olimpiadada hududdagi maktablarning 2372 nafar matematika va fizika muallimlari o'z bilim, ko'nikmalarini sinovdan o'tkazdilar.*

**MATEMATIKA FANI BO'YICHA G'OLIBLAR:**

1-o'rin - Abdurashidbek Qo'chqorov - Buxoro tumani

2-o'rin - Ismoil Po'lotov - Jondor tumani

3-o'rin - Behruz Avezov - Buxoro shahar

3-o'rin - Asadbek Nurmurodov - Buxoro shahri.

**FIZIKA FANI BO'YICHA G'OLIBLAR:**

1-o'rin - Vohid Fayziyev - Buxoro shahar

2-o'rin - Isomov Umidjon - Buxoro shahar

3-o'rin - Shahnoza Allamurodova - Buxoro tuman.

G'oliblarimizni tabriklaymiz!

**BUXORODA "PROKUROR SOVRINI" OLIMPIADASI FIZIKA FANI G'OLIBLARI**

1		Vohid Fayziyev	53.5 ball
2		Isomov Umidjon	39.8 ball
3		Shahnoza Allamurodova	32.5 ball

[www.olympiad.nordicuniversity.org](http://www.olympiad.nordicuniversity.org)

## Nordik izlanuvchilari malakaviy imtihondan o'tdilar



"Sanoat iqtisodiyoti", "Moliya, pul muomalasi va kredit", "Menejment", "Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya" ixtisosliklari bo'yicha malakaviy imtihon bo'lib o'tdi. Komissiya a'zolari mustaqil izlanuvchilarga ular tadqiqot olib borayotgan mavzu va sohadagi islohotlar strategiyasi va metodologiyasi yuzasidan savollar berib, bilim va tahlil qilish mahoratlarini sinovdan o'tkazdilar.

Shuningdek, maxsus fanlar bo'yicha savollar ham berilib, izlanuvchilar kasbiy malakasi baholandi.

## Mustahkam hamkorlik sari muhim qadam

*Nordik universiteti rektori Sherzod Mustafakulov, dekan Elshod Umarov va professor Baxtiyor Salimov Qo'qon universitetiga tashrif buyurdilar.*

Tashrifda universitetning Qo'qon shahri me'morchilik tarixini o'zida aks ettirgan Turizm majmuasi bilan tanishildi.

Shuningdek, Turizm va iqtisodiyot yo'nalishi talabalariga yaratilgan sharoit va imkoniyatlar, majmuadan o'rin olgan universitet muzeyi faoliyati ko'zdan kechirildi.

Rektor Sherzod Mustafakulov Qo'qon universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, filologiya fanlari doktori, professor Zeboxon Qobilovaga universitet muzeyi uchun Nordik sovg'asini taqdim etdi.



## XNU Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutida 2025-yil 2-chorak uchun kirish imtihoni bo'lib o'tdi

*"Moliya, pul muomalasi va kredit" ixtisosligi bo'yicha imtihon Xalqaro Nordik universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sherzod Mustafakulov raisligidagi komissiya tomonidan o'tkazildi.*

Kirish imtihonida mustaqil izlanuvchilikka talabgorlarning mutaxassislikka oid bilimi, innovatsion yondashuvi va ilmiy salohiyati sinaldi va baholandi.



**Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutida imtihon bo'lib o'tdi**

## Doktorant va mustaqil izlanuvchilar uchun ilmiy-amaliy seminar o'tkazildi



*Seminar masofaviy ta'limni rivojlantirish va ilmiy izlanishlarni samarali taqdim etish masalalariga bag'ishlandi.*

Xalqaro ekspert **Odilbek Kattayev "Napkin AI: O'qituvchilar va tadqiqotchilar uchun innovatsion vizualizatsiya vositasi sifatida"** mavzusida trening o'tkazdi.

Ishtirokchilar Napkin AI platformasidan foydalanish, taqdimot va ilmiy ishlarni vizuallashtirish usullari bilan tanishib, amaliy ko'nikmalar hosil qilishdi. Shuningdek, doktorantlar Ruslan Shodmonov, Islombek Axmedov, Dilmurod



Parpibayev va Shahnoza Yaxshiboyeva o'z ilmiy faoliyatlari bo'yicha erishgan natijalari bilan o'rtoqlashdilar.

Seminarda yosh olimlarga doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash, mutaxassislik bo'yicha chuqur izlanish olib borish hamda hisobotlar tayyorlash mezonlari bo'yicha muhim tavsiyalar berildi. O'qishning birinchi yilida bajarilishi lozim bo'lgan ishlar, hisobotlar taqdim etish mezonlari bilan tanishtirildilar.